

**“AQL” KONSEPTINING INGLIZ VA O‘ZBEK PAREMALARI ORQALI
O‘RGANILISHINING DOLZARBLIGI****O‘rmonova Maftuna Farhodjon qizi***Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek xalq paremalarida “aql va aqlsizlik” tushunchasining o‘xshash va farqli tomonlari haqida so‘z yuritiladi va natijada bu konseptni o‘rganish nechog‘lik muhim ahamiyatligi ko‘rsatiladi. Tarjimaning bir qancha muhim innovatsion usullarini topish hamda ingliz va o‘zbek tillaridagi maqollarning o‘ziga xos xususiyatlarini qarama-qarshi qo‘yish uchun shu konseptga oid maqollarning ekvivalentlari berilgan. Ushbu maqolaning natijalari va misollari “aql va aqlsizlik” haqidagi ingliz va o‘zbek maqollarining ba’zi bir farqlarini ajratib olishga va ularning lingvokultural xususiyatlarini o‘rganishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *Konsept, ekvivalent, parema, innovatsion, mentalitet, stilistik, pragmatik, tanbeh, muloqot, tadqiqot, bilim.*

Annotation: *This article talks about the similar and different aspects of the concept of “intelligence and insanity” in English and Uzbek folklore, and as a result, it shows how important it is to study this concept, to find some important innovative methods of translation, and in order to contrast the specific features of English and Uzbek proverbs, the equivalents of my article on this concept are given. The results and examples of this article are used to distinguish some differences between English and Uzbek proverbs about intelligence and insanity, and to analyze their linguistic and cultural characteristics to help to learn.*

Key words: *Concept, equivalent, innovative, drill, mentality, in link, pragmatic, body, communication, research, knowledge.*

KIRISH

O‘zbek tili - boy imkoniyatlarga ega til. Tilimizning o‘ziga xos xususiyatlari, tarkibiy qismlari, ma’naviy merosi, folklor namunalari va ajdodlarimiz yaratgan bitiklar uning qimmatini belgilaydi. Tilimizning tasviriy ifodalarga boyligi, bo‘yoqdorligi maqollarda ham namoyon bo‘ladi. Dono xalqimiz milliy madaniyatini, mentalitetini, so‘z boyligini maqollar orqali ham namoyon qiladi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek: “...o‘zlikni anglash milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy - ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu millatning ruhidir”. Adabiyot beqiyos ma’naviy merosdir. Uni o‘rganish, anglash, mag‘zini chaqish, hayotiy xulosalar chiqarish, ayniqsa, yoshlar tarbiyasida katta ahamiyatga ega bo‘lsa, uning tili, so‘z boyligi, ma’no mazmuni, madaniyatimizda tutgan o‘rnini anglash ma’naviy yuksalish uchun muhim omil sanaladi.

Hozirgi taraqqiy etgan davrda ingliz tili dunyo bo‘ylab xalqaro muloqot tili deb tan olingan til hisoblanadi. Haqiqatan, yer sharining uchdan ikki qismi hozirgi kunga kelib ingliz tilida qisman bo‘lsa-da so‘zlasha oladi hamda tushunadi. Shunday ekan, ingliz tili

O'zbekistonda chet tili sifatida chuqur o'qitilishiga e'tibor qaratilayotgan bir paytda, biz yoshlar mana shu jahon tilini puxta o'rganishimiz muhimdir.

O'zbekistan Respublikasida chiqarilgan tizimlilik va chet tillarini o'qitishga oid qarorlarni keltirib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Hozirda esa Prezidentimiz Sh.M.Mirziyayevning murojaatnomasidagi chet tili (ingliz tilini) o'qitishni yanada yaxshilash va ushbu yo'nalishlar uchun turli grantlar tashkil etishni aytish mumkinki, buning hammasi yoshlarga chet tilini samarali usulda o'qitishga harakat qilinayotganining yaqqol dalilidir: "Chet tillarini o'rganish - zamonaviy bilimlarning eng asosiylaridan biri bo'libgina qolmay, boshqa zarur bilim eshiklarini ochuvchi kalit hamdir" deya ta'kidladilar. Yurtimizda allaqachon ushbu haqiqatni qo'llab-quvvatlovchi qonun mavjud bo'lib, uzluksiz ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitishning jahon standartlariga mos muhiti yaratilgan.

"Aql" konseptining asoslanishi va uning dolzarbligi. Til millatning o'ziga xos madaniyatini aks ettiradi, ayniqsa, maqollarning ushbu millatning milliy xususiyatlari va madaniyatini aks ettirishdagi o'rni katta. Maqollarda nafaqat xalqning urf-odatlarini va milliy tushunchalari, balki tarixiy joylari, taniqli insonlari va personajlari ham o'z ifodasini topgan.

Shuni yodda tutish kerakki, maqollar ingliz va o'zbek tillari nutq boyligining juda ko'p qismlarini tashkil etadi. Ular bir-biridan semantik, strukturaviy, stilistik hatto pragmatik jihatdan farq qiladi. Maqollar millat madaniyatining ko'plab kamchiliklarini va nuqsonlarini tanbeh yo'lida bartaraf etishga qaratilgan nuqtayi nazari bilan tavsiflanadi. Maqollar mavjud bo'lgan til madaniyatini tavsiflash, aniqlash va ifodalashga xizmat qiladi. Tilning paremiologik fondida milliy tushunchalar, narsalar, hissiyotlar, urf-odatlar, taniqli ajdodlar, hatto joy nomlari - madaniy nuqtalarni ko'rish mumkin. "Aql va aqlsizlik" tushunchasi bilan bog'langan ingliz va o'zbek maqollari millatning mentaliteti, madaniyati va urf-odatlarini aks ettiradi va ushbu millat tilida muhim o'rin tutadi. Ikkala tilda ham aql haqidagi maqollar xilma-xil bo'lib, ular orasida sinonimik yoki antonimik maqollarni topish mumkin. Ammo ularning sinonimik va antonimik munosabatlari mutlaq deb hisoblanmaydi, chunki ular kontekstga qarab tanlanadi, natijada ularning ma'nolari ham vaziyatga qarab ozmi-ko'pmi o'zgarishi mumkin. Shu sababli, maqolni tegishli joyda qo'llash nutqni ravon qiladi. Chunki yuqorida aytib o'tganimizdek, maqollar nutqda tez-tez ishlatiladi va ular vaqt, joy, holat va boshqa amaliy omillarga qarab tanlanadi. Bundan tashqari, jamiyat va ijtimoiy jarayonlar maqollarning ishlatilishi, mazmunan ifodalanishi va boshqa xususiyatlariga bevosita ta'sir qiladi.

Tadqiqot va natijalar. "Aql va aqlsizlik" konseptiga oid paremlar yordamida ushbu ikki tildagi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilindi va natijada o'quvchiga bu mavzuga doir ingliz va o'zbek maqollarining barchasida aqllilik eng buyuk ezgu ish sifatida baholangan bo'lsa, aqlsizlik insoniyatning eng razil va jirkanch tomoni ekanligi ko'rsatiladi. "Aql va aqlsizlik" tushunchasi "ilm", "halollik", "bilim" va "mehnatsevarlik" kabi ijtimoiy tushunchalar qatorida sodir bo'ladigan inson hayotidagi eng qimmatli mavhum tushunchalardandir. "Aql va aqlsizlik" mavzusiga oid maqollar deyarli bir xil ma'no-mazmunga egadir. Faqat ko'p holatlarda har ikki tilda aynan bir-biriga mos keladigan so'zlardan foydalanilmagan. Odatda tarjimada turlicha ma'noga ega bo'lgan maqollarni semantik jihatdan chuqur tahlil qilish jarayonida bir xil ma'no anglatishi kuzatiladi. Maqollarni so'zma-so'z tarjima qilish, boshqa tillardagi maqollarning ma'nosini to'liq idrok etish uchun

yetarli emas, chunki uning to'laqonli mazmuni tarjima qilingan tildagina mavjud. Bu maqolning asosiy ma'nosini noto'g'ri tushunishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ingliz va o'zbek tillarida maqollarning ekvivalentlarini topish hamda ushbu tillardagi "aql va aqlsizlik" haqidagi maqollarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga va ularni yoritib berishga harakat qildik.

Mazkur maqolaning metodologik asosi - uslubiyatini, milliy mafkuraviy g'oyalar, O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Harakatlar strategiyasi", ilm-fan va maorif haqidagi farmonlari, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va Vazirlar Mahkamasining ta'limga oid davlat hujjatlari tashkil etadi. Shu jumladan, dunyo tilshunos olimlari Teliya V.N, Maslova V.A, Postovalova V. A hamda O'zbekistonlik tilshunoslar Yusupov U.K, Mahmudov N, Sobitova Z.K va boshqa tilshunos olimlarning ushbu tadqiqot mavzusiga oid ishlari tashkil qiladi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi "aql va aqlsizlik" konseptiga oid paremalarni ilmiy-nazariy asoslash, lingvokulturologik jihatdan o'rganish, uslubiy-semantik strukturasi ustida ishlash hamda mavzuga oid maqollarni tasniflash, ularning o'ziga xos jihatlari va ularning ushbu tillarda ifodalanishi haqida ilmiy ma'lumotlarga izoh, tushunchalar berish va bu boradagi tavsiyalarni ishlab chiqish maqolaning maqsadini belgilaydi.

Natijalar muhokamasi. Paremik janrlar munosabati kompleks holda tadqiq etilmagan. Maqollar olami turli soha mutaxassislari hisoblangan olimlar - tilshunoslar, adabiyotshunoslar, paremiologlar, folklorshunoslar, etnograflarning tadqiqotlar olib borishlari uchun "hosildor maydon" hisoblanadi. Maqollarga til birligi sifatida yondashish, ya'ni maqollarga turg'un birikmalar sifatida ta'rif berish oz bo'lsa-da, o'quvchilarda o'zbek va ingliz tillaridagi "aql va aqlsizlik" konseptiga oid paremalarda "aql va aqlsizlik" tushunchasini belgilanishini farqlash va asoslash imkoniyatlarini shakllantiradi.

Maqollar mazmuniy bir butunlik nom ostida tilshunoslik yutuqlari asosida o'rganilgan. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, maqollarni aynan bir konsept asosida lingvokulturologik jihatdan tadqiq qilingan ishlari juda kam. Shuning uchun yosh o'rganuvchi mutaxassislar bir konseptni ingliz va o'zbek maqollari o'rtasidagi aql tushunchasi ifodalanishining o'xshash va farqli belgilarini tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'zlashtirishga harakat qilishadi va o'rganuvchilar bunda keltirilgan ma'lumotlarni lingvokulturologik va leksik-semantik hodisalarni o'rganish uchun tayyor material sifatida ishlatish mumkin.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqotchilar "Aql" konseptini lingvokulturologiyaga va paremalar tadqiqiga doir ilmiy asarlar hamda turli xil inglizcha va o'zbekcha lingvistik, ensiklopedik va maxsus maqollar izohi lug'atlarining o'zbek va ingliz tillaridagi asl matnlari orqali yanayam kengroq tushunishlari va bilimlarini oshirishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 65-b.
2. Karimov. I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: O'zbekiston, 2000. T. 8. – B. 489-509.
3. Mirziyoyev Sh.M., Oliy majlisga murojaatnoma, Toshkent, 2020. 122-b.
4. Mirziyoyev. Sh. M. “Milliy taraqqiyot yo'limizni qa'tiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz“ 1-Jild-O'zbekiston, 2017-B.29.
5. Jamolxonov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: O'qituvchi, 2005. 196-bet
6. Judith Martin. Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts- 5th edition. New York.. McGraw Hill-2010. p-180-181.
7. Nurmonov A.Sepir-Uorfning lingvistik til nazariyasi haqida mulohazalar/O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari – Toshkent, 2011.
8. Mirzayeva D. I. O'zbek-Ingliz maqol va matallarining lingvokulturologik hamda pragmatik tadqiqi. Filologiya fanlari nomzodi. dissertatsiyasi, avtoreferat. Andijon. 2022.
9. O'rmonova Maftuna Farhodjon qizi. Ingliz va o'zbek tillarida “aql va aqlsizlik”konseptiga oid paremalarning lingvomadaniy tadqiqi. Magistrlik dissertatsiyasi. Farg'ona. 2023.
10. Ганиева Д. А. и др. СЕМАНТИКА И СИНТАКСИС ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 176-179.
11. Dildora A. Ganieva, . (2022). SYNCRETISM AND POLYFUNCTIONALITY OF THE GRAMMATICAL CATEGORY OF MOOD. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 3(10), 67-74. <https://doi.org/10.37547/philological-crjps-03-10-09>
12. Д А Ганиева, Г А Турдиева. HIS-HAYAJONNI IFODALOVCHI BIRLIKLAR MILLIY XARAKTER VA MILLIY MENTALITET MAHSULI SIFATIDA - МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 2021
13. . Нуралиева, Д. М. (2022). ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕНИЯ ДЕТЕЙ И РОДИТЕЛЕЙ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ. *Uzbek Scholar Journal*, 6, 39-43.
14. Мамурjonovna, Nuraliyeva Dildora. "PSYCHOLOGICAL SERVICE AND ITS ROLE IN FAMILY RELATIONSHIPS." (2022): 115-121.
15. Nuraliyeva, D. M. (2020). CHARACTERISTICS OF MARRIAGE RELATIONS IN PROVIDING PSYCHOLOGICAL AID TO THE FAMILY AND IT INFLUENCE ON THE STRENGTH OF MARRIAGE. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 411-414).
16. Nuraliyeva D. M. Development of socio-psychological mechanisms of psychological services to families and children. – 2019.
17. google scholar
18. google translator